

Statistika kuzatuvlari shakllariga indekslar biriktirish reglamenti

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Statistika kuzatuvlari shakllariga indekslar biriktirish reglamenti (keyingi o'rinlarda – Reglament) Milliy statistika qo'mitasi tizimi amaliyotida foydalanilayotgan statistika hisoboti va tanlanma statistika kuzatuvlari shakllariga (keyingi o'rinlarda – statistika kuzatuvlari shakllari) indekslarni biriktirishda yagona yondashuvlarni ta'minlash, statistika organlari xodimlari, hisobot taqdim etuvchi respondentlar va boshqa foydalanuvchilar tomonidan statistika kuzatuvlari shakllarining turi, davriyligi va mazmunining oson tushunilishi hamda foydalanishda qulaylik yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament BMTning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi, Yevrostat hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining birlashgan guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model – GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, statistika kuzatuvlari shakllariga indekslar biriktirishning yagona tartib va qoidalarini belgilab beradi.

Ushbu Reglament GSBPM milliy modelining I. Statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish bosqichi doirasida rasmiy statistika ma'lumotlarining asosiy axborot manbai hisoblangan statistika kuzatuvlari shakllarini belgilash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

3. Har bir statistika kuzatuv shakliga biriktiriladigan indeks uning muayyan statistika yo'nalishiga yoki tarmog'iga tegishliligi, turi, davriyligi va asosiy mazmunidan kelib chiqqan holda boshqa statistika kuzatuv shakllaridan o'zaro farqlanishini ta'minlashi lozim.

4. Indeks statistika kuzatuv shakliga Milliy statistika qo'mitasi tomonidan biriktiriladi va yagona hisoblanadi.

2-bob. Statistika kuzatuvlari shakllariga indeks biriktirish tartibi

5. Statistika kuzatuv shaklining indeksi quyidagilardan iborat bo'lgan belgilardan tashkil topadi:

kuzatuv shaklining davriyligini aks ettiruvchi raqamdan (raqamlardan);

statistika yo'nalishi yoki tarmog'ini (kichik tarmog'ini) aks ettiruvchi qisqa harfli belgi, qisqartirilgan yoki bitta so'z belgisidan;

kuzatuv shaklining asosiy mazmun-mohiyatini ochib beruvchi kalit so'z (so'zlar) yoki harfli qisqartmadan tashkil topgan qo'shimcha nomdan.

6. Statistika kuzatuv shakliga biriktirilgan raqam (raqamlar) indeksi uning davriyligini aks ettiradi.

Statistika kuzatuvlari shakllariga biriktiriladigan har bir raqam (raqamlar) mazkur Reglamentning 1- ilovasiga muvofiq, statistika kuzatuvlari shakllarining davriyligi tasnifiga mos ravishda belgilanadi.

Masalan:

1 raqami – davriyligi yillik yoki yilda bir marta bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllariga;

4 raqami – choraklik davriylikdagi;

12 raqami– oylik davriylikdagi statistika kuzatuvlari shakllariga biriktiriladi.

7. Har bir statistika kuzatuv shakliga uning statistika tizimining muayyan yo'nalishi yoki tarmog'i (kichik tarmog'i)ga tegishliligini bildiruvchi qisqa harfli belgi, qisqartirilgan yoki bitta so'z shaklidagi nom beriladi.

8. Biriktirilayotgan qisqa harfli belgi, qisqartirilgan yoki bitta so'z shaklidagi nom ustuvor ravishda statistika amaliyotida qo'llanilayotgan va keng jamoatchilik uchun tushunarli bo'lgan qisqartma harflar yoki so'zlardan iborat bo'lishi, zarur hollarda nafaqat statistika yo'nalishi yoki tarmog'ini, balki statistika kuzatuvlari shaklining asosiy mazmunini ham ochib berishi lozimligiga e'tibor qaratish kerak.

Masalan:

1 invest shakli – investitsiya statistikasi;

1 savdo shakli – savdo statistikasi;

1 mehnat shakli – mehnat statistikasi;

1 xizmat shakli – xizmatlar statistikasi;

1 moliya shakli – moliya statistikasi bo'yicha statistika kuzatuvlari shaklining turi ekanligini bildirib, shu bilan birga ushbu nomlar mazkur kuzatuv shakllarining asosiy mazmunini ham aks ettiradi.

Shuningdek, hisobot taqdim etuvchi respondentlar va jamoatchilik tomonidan oson tushuniladigan va keng qo'llaniladigan qisqartma so'zlardan iborat:

1 fx shakli – fermer xo'jaliklari faoliyati to'g'risida;

1 kb shakli – kichik biznes yoki tadbirkorlik faoliyati to'g'risida;

1 akt shakli – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faoliyati to'g'risida;

1 nnt shakli – nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati to'g'risidagi statistika kuzatuvlari shakllarini bildirgan holda, o'z navbatida ushbu shakllarning muayyan statistika yo'nalishiga tegishlilikini ham bildiradi.

Statistika kuzatuvlari shakllariga beriladigan qisqa harfli belgi, qisqartirilgan yoki bitta so'z shaklidagi nom kichik harflarda yoziladi.

9. Statistikaning bir yo'nalishi yoki tarmog'i bo'yicha bir necha o'zaro o'xshash yoki mazmun jihatdan yaqin statistika kuzatuvlari shakllari mavjud bo'lsa, ularning asosiy mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda kalit so'z (so'zlar) yoki harfli qisqartmadan tashkil topgan qo'shimcha nom biriktiriladi.

10. Statistika kuzatuvlari shakliga biriktiriladigan kalit so'z (so'zlar) yoki harfli qisqartmadan tashkil topgan qo'shimcha nom statistika kuzatuv obyekti o'zining qisqa ma'naviy tarkibini, ya'ni kuzatuv shaklining asosiy mazmunini aks ettirishi lozim.

11. Biriktirilayotgan qo'shimcha nom qavs ichida, kichik harflarda, mazkur shaklning milliy statistika tizimi muayyan yo'nalishi yoki tarmog'iga tegishlilikini bildiruvchi qisqa harfli belgi, qisqartirilgan yoki bitta so'z shaklidagi biriktirilgan nomidan keyin yoziladi. Ushbu qo'shimcha nom statistika kuzatuvlari shakllarini o'zaro bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi.

Masalan: narx statistikasi bo'yicha *12 narx (iste'mol)* shakli – tovar (xizmat)lar iste'mol narx (tarif)larini ro'yxatga olish bo'yicha narx kuzatuvlarini bildirsa, *12 narx (qx)* shakli – ulgurji bozorlardagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini ro'yxatga olish bo'yicha narx kuzatuvlarini aks ettiradi;

qurilish statistikasi bo'yicha *1 qurilish* shakli – qurilish ishlarining bajarilishi to'g'risida kuzatuv shaklini bildirsa, *1 qurilish (jismoniy)* shakli – jismoniy shaxslar tomonidan qurilgan va foydalanishga topshirilgan turar joylar va noturar binolar to'g'risidagi kuzatuv shaklini aks ettiradi;

investitsiyalar statistikasi bo'yicha *1 invest (xorijiy)* shakli – xorijiy investitsiyalar to'g'risida, *1 invest (asosiy)* shakli esa – asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalar to'g'risidagi kuzatuv shaklini bildiradi;

xizmatlar sohasi statistikasi bo'yicha *1 kom (shahar)* shakli – shahar aholi punktlarini obodonlashtirish faoliyati to'g'risida, *1 kom (ichimlik suvi)* shakli esa – ichimlik suvi bilan ta'minlash faoliyati to'g'risida kuzatuv shaklini bildiradi;

tadbirkorlik statistikasiga tegishli *1 kb (qurilish)* shakli – obyektlar, quvvatlarni ishga tushirish va ularning qurilishiga yo'naltirilgan investitsiyalardan foydalanish to'g'risida, *1 kb (eko)* shakli esa – atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi kuzatuv shakli ekanligini bildiradi.

12. Agar tarmoq statistikasi yo'nalishi bo'yicha faqat 1 ta kuzatuv shakli bo'lsa yoki bir qisqartma nom bilan kuzatuv shaklining asosiy mazmunini to'liq ochib berish imkoniyati bo'lsa, ushbu shakldagi qisqartma nomning o'zi ishlatiladi va unga kalit so'z (so'zlar) yoki harfli qisqartmadan tashkil topgan qo'shimcha nom biriktirilmaydi.

Masalan, *3 don, 3 pilla, 1 hudud, 1 oila, 1 uy-joy, 1 akt, 1 turizm, 1 innovatsiya* shakliga biriktirilgan qisqartma nomlar bir vaqtning o'zida mazkur kuzatuv shaklining ham davriyligini, ham qaysi statistika yo'nalishi yoki tarmog'iga tegishliligini, ham hisobotning asosiy mazmunini o'zida aks ettiradi.

Bu kabi nomlari oson tushuniladigan va boshqa o'xshashi yo'q bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllariga kalit so'z (so'zlar) yoki harfli qisqartmadan tashkil topgan qo'shimcha nom biriktirish talab qilinmaydi.

13. Statistika kuzatuvi shaklining biriktirilgan indeksida, shaklning raqam (raqamlar) indeksi va qisqa harfli belgi, qisqartirilgan yoki bitta so'zdan iborat nom indeksi bir-biridan "bo'sh joy (probel)" bilan ajratiladi, kalit so'z (so'zlar) yoki harfli qisqartmadan tashkil topgan qo'shimcha nom qavs ichida ko'rsatiladi.

Statistika kuzatuvi shakliga indeks biriktirishning shartli namunasi mazkur Reglamentning 2-ilovasida keltirilgan.

14. Statistika kuzatuvi shakllariga muayyan indeks biriktirish bo'yicha takliflar Milliy statistika qo'mitasining kuzatuv shakllariga mas'ul bo'lgan tegishli tarmoq boshqarmasi tomonidan mazkur Reglament talablari asosida, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi bilan kelishilgan holda, ko'rib chiqish uchun Milliy statistika qo'mitasining Ekspert kengashiga kiritiladi.

Ekspert kengashi tomonidan ma'qullangan indekslar biriktirilgan statistika kuzatuvlari shakllari Milliy statistika qo'mitasi qarori bilan tasdiqlanadi.

15. Statistika kuzatuvlari shakllariga biriktirilgan indekslar har yili, kelgusi yil uchun statistika kuzatuvlari shakllarining muhokamasi doirasida Milliy statistika qo'mitasining Ekspert kengashi yig'ilishlarida ko'rib chiqiladi va zarur hollarda ularga o'zgartirishlar kiritiladi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

16. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari bilan yil davomida yangi statistika kuzatuvlari shakllari joriy etilganda yoki mavjud shakllarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda, ularga indeks biriktirish yoki mavjud indekslarni o'zgartirish mazkur Reglament talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

17. Mazkur Reglamentni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq bayon etilgan.

**Statistika kuzatuvlari shakllarining
davriyligi tasnifi**

Kuzatuv shakliga biriktiriladigan raqam (raqamlar) indeksi	Statistika kuzatuvlari shakllarining davriyligi
1	yillik (yilda bir marta)
2	yarim yillik (yilda ikki marta)
3	yilda uch marta
4	choraklik
5	boshqalar (haftalik, 2-yilda bir marta va h.k.)
12	oylik

**Statistika kuzatuvi shakliga indeks biriktirishning shartli
namunasi**

Kuzatuv shakli indeksi	Biriktirilgan indekslarning ma'nosi	
1 sanoat (paxta)	yillik	1
	sanoat statistikasi	sanoat
	paxta xomashyosi hosilini qayta ishlash natijalari to'g'risida hisobot	paxta
1 mehnat	yillik	1
	mehnat statistikasi	mehnat
	mehnat hisoboti	
3 don	yilda uch marta	3
	qishloq xo'jaligi statistikasi	don
	don ekinlarini tayyorlash to'g'risida hisobot	
4 invest (xorijiy)	choraklik	4
	investitsiyalar statistikasi	invest
	O'zbekiston Respublikasiga chet eldan kiritilgan investitsiyalar va O'zbekiston Respublikasidan chet elga yo'naltirilgan investitsiyalar to'g'risida hisobot	xorijiy
4 transport	choraklik	4
	xizmatlar sohasi statistikasi	transport
	Avtomobil, elektr (tramvay, metropoliten, trolleybus) transporti ishi to'g'risida hisobot	
5 narx (o'rtacha)	boshqalar (<i>haftalik</i>)	5
	narx statistikasi	narx
	bozor va do'konlarda narxlarni ro'yxatga olish so'rovnomasi	o'rtacha
12 moliya	oylik	12
	tadbirkorlik faoliyati statistikasi	moliya
	tashkilotning moliyaviy ahvoli to'g'risida hisobot	